



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA NATIJAVIY BAHOLASHNING AHAMIYATI

G'ofurova Mahfuza Abbosovna

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muxtorova Dildoraxon Rasuljon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Natijaviy baholash o'quvchilarning matematik bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ularning mustaqil fikrlash darajasini baholashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, baholash jarayonida zamonaviy yondashuvlar va mezonli baholashning o'rnini tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida baholash o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash bilan birga, ularning o'qishga bo'lgan munosabatini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf matematika darslarida baholashning to'g'ri tashkil etilishi o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, hisoblash malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, natijaviy baholash o'quvchilarning ma'lum bir bosqichda erishgan yutuqlarini aniqlash imkonini beradi. Natijaviy baholash tushunchasi va uning mazmuni. Natijaviy baholash- bu o'quv jarayonining yakunida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini aniqlashga qaratilgan baholash turi hisoblanadi. U odatda mavzu, bo'lim yoki chorak yakunida o'tkaziladi. Natijaviy baholash samarali bo'lishi uchun u aniq mezonlar asosida tashkil etilishi lozim. Boshlang'ich sinflarda quyidagi baholash shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq: yozma nazorat ishlari, test topshiriqlari, amaliy mashqlar, mantiqiy va ijodiy masalalar. Baholash jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olinishi zarur. Baholash faqatgina xatoni aniqlash emas, balki o'quvchini rag'batlantirishga xizmat qilishi lozim. Shuningdek, u o'qituvchiga ta'lim jarayonini rejalashtirish va takomillashtirish uchun muhim ma'lumot beradi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida natijaviy baholash ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Baholashning aniq mezonlar asosida olib borilishi o'quvchilarning bilim darajasini xolis baholashga hamda ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan munosabat, o'qishga qiziqish va asosiy o'quv ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, matematika fanini o'qitish jarayonida baholash tizimining to'g'ri tashkil etilishi ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Baholash nafaqat o'quvchining bilim darajasini aniqlash, balki uning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirish vositasi ham hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, natijaviy baholash o'quvchilarning ma'lum bir davr yoki bosqich yakunida erishgan bilim va ko'nikmalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. U o'quv





jarayonining qanchalik samarali tashkil etilganini ko'rsatib beruvchi muhim pedagogik mexanizm sanaladi. Natijaviy baholash ta'lim jarayonining yakuniy bosqichida amalga oshiriladigan baholash turi bo'lib, o'quvchilarning egallagan bilimlari, shakllangan ko'nikma va malakalarini aniqlashga qaratiladi. Boshlang'ich sinf matematika darslarida bu baholash turi o'quvchilarning matematik tushunchalarni qanchalik o'zlashtirgani, hisoblash amallarini bajarish aniqligi va masalalarni yechish qobiliyatini aniqlashga xizmat qiladi. Natijaviy baholash jarayonida o'quvchilarning faqatgina nazariy bilimlari emas, balki amaliy faoliyati ham inobatga olinadi. Bu esa o'quvchining real bilim darajasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, baholash mezonlarining aniq belgilanishi baholashning xolis va adolatli bo'lishini ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf matematika darslarida natijaviy baholashni tashkil etishda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Baholash jarayoni o'quvchini qo'rqitmasligi, aksincha, uni o'z ustida ishlashga undashi lozim. Natijaviy baholashni amalga oshirishda yozma nazorat ishlari, test topshiriqlari, amaliy mashqlar hamda mantiqiy masalalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Ayniqsa, ijodiy va mantiqiy topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Baholash natijalari asosida o'qituvchi ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlab, darslarni takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. To'g'ri tashkil etilgan natijaviy baholash o'quvchilarda o'z bilimlarini tahlil qilish, xatolar ustida ishlash va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu jarayon o'quvchilarning ta'limga bo'lgan mas'uliyatini oshirib, mustaqil o'rganishga undaydi. Bundan tashqari, natijaviy baholash o'qituvchi faoliyatining samaradorligini baholashda ham muhim ahamiyatga ega. Olingan natijalar asosida o'qituvchi ta'lim metodlarini qayta ko'rib chiqishi va ularni takomillashtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zankov L.V. "Rivojlantiruvchi ta'lim asoslari".
2. Polat E.S. "Interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalar".
3. Tojiev M. "Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish metodikasi".
4. Jo'rayev R. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat".
5. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – B 304
6. Gafurova, M. A. (2022). Improving Mental Skills Of Students By Analyzing And Solving Problems. Current Research Journal Of Pedagogics, 3(01), 40-44.
7. Gofurova, M. A. (2020). Development of students' cognitive activity in solving problems. ISJ Theoretical & Applied Science, 1(81), 677-681.
8. Gafurova, M. A. (2021). Developing Cognitive Activities of Primary School Students based on an Innovative Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(10), 236-242.

